

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**XORAZM VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT
MARKAZI**

**“Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim
metodikasi” kafedrasi**

R.Begliyev

**O‘quvchilarning vokal-xo‘r malakalarini
shakllantirish**

METODIK TAVSIYA



Urganch -2024

Ushbu qo'llanma UO'T maktablari musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun tayyorlangan, unga ovoz va uni boshqarish, ovozni hosil qilish, xonandalik nafasi, artikulatsiya, talaffuz, ovoz tiniqligi (intonatsiya), dinamik belgilar, legato, stakkato, kantilena va rechitativ ijrochiligi uslublarini chuqur egallashga qaratilgan vokal mashqlari kiritilgan.

Tayyorlovchi:

R.Begliyev Xorazm viloyati PMM dotsenti

Taqrizchilar:

S.Nurmetov UrDU "Musiqa ta'limi kafedrasii o'qituvchisi. Bastakor.

Z.Kulmetova Urganch shahar 11-son maktabning oliy toifali musiqa madniyati fani o'qituvchisi

Ushbu metodik tavsiya "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi" kafedrasining 2024____ oktabrdagi ____ sonli yig'ilishida muhokama qilindi va Xorazm viloyati PMM Ilmiy metodik kengashining 2024 yil ____ oktabrdagi ____ sonli yig'ilishda chop qilishga ruxsat berildi.

SO‘Z BOSHI

E’tiboringizga havola etilayotgan uslubiy qo‘llanmada musiqa darslarida qo‘llaniladigan xonandalik mashqlari, ulardan ko‘zlanadigan maqsad va vazifalar, qo‘shiq kuylashga doir qoidalar, qo‘shiqchilik nafasi, talaffuz, artikulatsiya, tovush hosil qilish va h. k. larga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Professional (ustozona) xonandalik ovozi shakllantirish - ovoz apparatining maxsus mashqlari natijasida amalga oshiriladi. Akademik uslubda qo‘yilgan xonandalik ovozi – o‘zining tembr go‘zalligi, jarangdorligi, unlilarning yumaloq kuylanishi, keng dinamik imkoniyatlari, ikki oktavali diapazonning tekisligi bilan ajralib turadi.

Vokal mashqlariga oid ma’lumotlarning barchasi I. P. Brizgalovning “Shkola peniya dlya baritona i basa” (G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti., T-1987) kitobidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashrga tayyorlangan; chunki, vokal asoslari fani bo‘yicha to shu kungacha o‘zbek tilida bironta ham darslik yoki o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgan emas.

Shuning uchun ham biz quyida I. P. Brizgalov va uning “Shkola peniya dlya baritona i basa” kitobi haqidagi ayrim ma’lumotlarni keltirishni lozim topdik.

Igor Petrovich Brizgalov 1918 yili Rossiyaning Saratov shahrida tug‘ilgan. 1921 yildan keyingi hayoti esa Toshkent shahri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. I. P. Brizgalov Toshkent davlat konservatoriyasidagi o‘qishni tamom qilgach, umrining oxirigacha Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida yoshlarga vokal bo‘yicha dars bergan. 35 yillik pedagoglik faoliyatida u 50 dan oshiq yuqori malakali, professional xonandalarni tarbiyalagan.

I. P. Brizgalov konservatoriyaning - 1918 yildan 1952 yilgacha Toshkentda ishlagan, O‘zbekistonda akademik vokal ta’limotining asoschisi, Respublikada xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor A. P. Vlasov sinfida tamomlagan.

I. P. Brizgalov faol targ‘ibotchilaridan biri bo‘lgan Vlasovning vokal maktabi o‘zining oddiyligi, tabiiyligi, pozitsion yorqin, “uchuvchan” tovushga egaligi bilan, ijroning samimiy va ifodaliligi bilan ajralib turgan. Bu vokal maktabi kuylash jarayonida odam organizmining ortiqcha zo‘riqishlarsiz to‘la quvvat bilan ishlashiga asoslangan.

Igor Petrovich Brizgalov hoh tovush hosil qilish kamchiliklari va ularni tuzatish haqida, hoh foydalanadigan mashqlar haqida, hoh unli va undosh tovushlarni hosil qilish va kuylash jarayonida ularning tutgan o‘rni haqida gapirmasin – doimo uning aktyorlik va pedagogik faoliyatidagi katta tajribasi, shuningdek, yirik xonandalar va vokal o‘qituvchilari bilan bo‘lgan muloqotlarda egallagan tajribasi yaqqol sezilib turgan.

Vokal mashqlarini qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar

Mashqlarning maqsad va vazifalari. O'quvchilarni kuylashga o'rgatish vokal mashqlaridan boshlanadi. Vokal mashqlari ovozni rivojlantirish va yumshatishga, tovush hosil qilish va kuyni aniq-ravshan ifodalashda to'g'ri yo'nalishni tanlash, ortiqcha zo'riqishlardan ozod bo'lishga hamda kuylashda zarur bo'ladigan shunga o'xshagan boshqa malakalarni egallashga yordam beradi.

Mashhur Italiya vokal pedagogi Tyuzi XVIII asrning boshida "vokal mashqlari – maqsadga erishishning yagona vositasi" degan edi.

Vokal mashqlari kuylash jarayonida faol ishtirok qiladigan gavda, tomoq va bo'yin, artikulyatsiya apparati muskullarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Vokal mashqlari – biron-bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Kuylashni boshlashdan oldin talabaga har bir mashqning vokal-texnik vazifalarini tushuntirib berish zarur.

Vokal mashqlarini kuylashning ikkita uslubi, ya'ni, *legato* va *stakkato*dan foydalaniladi:

legato kuylash uslubida tovushlarni cho'zib kuylash - kantilena malakalari hosil qilinadi, qo'shiqchilik nafasi rivojlantiriladi, nafasni osoyishta sarf qilish ko'nikmalari egallanadi, ovoz registrlari va unli tovushlarning jaranglashlari tekislanadi;

stakkato uslubida esa ovoz boylamlari va diafragmaning ishi faollashtiriladi, aniq tovush hujumi ishlab chiqiladi, nafas olishda tovush tayanchi aniq his qilinadi.

Dastlabki mashg'ulotlardan boshlab mashqlarni kuylashda *legato* uslubini ham, *stakkato* uslubini ham galma-gal almashlab turish tavsiya etiladi.

Har bir qo'shiqchining ijodiy faoliyatda foydalanadigan o'zining vokal mashqlari bo'lishi lozim.

Mashqlarning izchilligi. Vokal mashqlari qat'iy ravishda izchil qo'llanilishi lozim. Har bir mashq avvalgi o'zlashtirilgan ko'nikmalarni mukammallashtirishga va yangilarini sekin-asta rivojlantirishga xizmat qiladigan tartibda joylashtirilishi lozim. Shuning uchun tavsiya etilayotgan mashqlarni barchasini bir boshdan kuylash tavsiya etilmaydi, balki, ta'limning u yoki bu bosqichida o'quvchi yoshlarni uchun eng zarur bo'lganlarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Kuylashni oddiy mashqlardan boshlash, mashqlarning oralarida toliqishga va asabiylashishga yo'l qo'ymaslik uchun kichik tanaffuslar qilish va kuylashni birmuncha murakkab mashqlar bilan tamomlash zarur.

O'quvchi yoshlarni tomonidan avval o'zlashtirilgan *tessitura*da (kuy diapazoni oralig'idagi baland va past tovushlar nisbati. Mashqda baland tovushlar ko'p bo'lsa, yuqori tessitura; past tovushlar ko'p bo'lsa pastki tessitura haqida gap ketadi) va unga tanish tartibda joylashtirilgan mashqlarni kuylash charchoqni keltirib chiqarmaydi, aksincha, kuylashni davom ettirishni talab etadi.

Vokal mashqlarining diapazoni. Ta'limning dastlabki bosqichida oktava oralig'idagi markaziy *ishchi diapazonda* (o'quvchi yoshlarni osonlik bilan

kuylaydigan va unga odatiy bo‘lib qolgan tovushlar) qisqa va sodda mashqlarni kuylash va har bir darsda ularni murakkablashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Ovoz diapazonini kengaytirish uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, bu ishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yish yaramaydi. Doimo ovoz diapazonidagi yaxshi jaranglaydigan tovushlardan kelib chiqish zarur. Qo‘shiqchi uchun eng asosiysi – ovoz diapazonining o‘rtasi yoki markazidir, chunki, diapazonning bu qismi eng ishchan qism hisoblanadi. Ta’limning dastlabki bosqichida diapazonning markaziy tovushlarini shakllantirish lozim. Muddatdan oldin yuqori va past notalarni egallashga harakat qilmagan ma’qul. Ularni yaxshi jaranglaydigan o‘rta tovushlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Yuqori registr tovushlari bilan ham kamroq shug‘ullanish kerak. Eng chekka yuqori notalarni bir dars davomida ikki martadan ko‘p olmaslik zarur. Yuqori notalar bilan ko‘p shug‘ullanish va ularni kuch bilan olish, albatta past notalarning bo‘g‘iq eshitilishiga olib keladi. Barcha ishlarni o‘quvchi yoshlarniovozi chegaralarida bajarish, uning tabiiy jaranglashini buzmasdan olib borish kerak.

Artikulatsiya. Artikulatsiya (lot. articulare – qismlarga bo‘lib gapirish) – nutqning ma’lum tovushlarini talaffuz qilish uchun zarur bo‘lgan nutq organlari (lablar, til, yumshoq tanglay, ovoz boylamlari)ning ishidir.

Mashqlarni kuylashda turlicha unli tovushlardan, bo‘g‘inlardan hamda nota nomlaridan foydalaniladi. Har bir o‘quvchi yoshlarniuchun tovush tiniq va sifatli jaranglaydigan, og‘iz esa erkin va chiroyli ochiladigan unli tovushlar yoki bo‘g‘inlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Italyan vokal pedagoglari haqli ravishda mashqlarni ko‘pincha nota nomlari bilan kuylash, vokalizatsiyani esa **a**, **e**, **o** kabi unli tovushlardan boshlash yaxshi natijalar beradi deb hisoblaydilar. Vokalizatsiya jarayonida unli tovushlarning jarangdorligiga erishiladi, intonatsiya mustahkamlanadi, ovoz engil bo‘lib, unli tovushlarni aniq talaffuz qilishga odatlanadi.

Ta’limning 1 va 2- yillarida mashqlarni notalarni nomi bilan kuylash (solfedjiolash)dan ko‘proq foydalanish lozim, vokalizatsiyaga o‘tish muddatlarini esa har bir o‘quvchi yoshlarniuchun alohida belgilash zarur bo‘ladi. Musiqa asarlarida vokalizatsiya ko‘p uchraganligi sababli, uning xonanda uchun qanchalik muhim ekanligi o‘z-o‘zidan ravshandir.

Dastlabki mashqlarni na faqat o‘quvchi yoshlarniuchun qulay bo‘lgan unli tovushlardan kelib chiqib tanlash, balki o‘quvchi yoshlarniovozinin tabiiy imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur bo‘ladi. Agar ovoz xira, chuqur, bo‘g‘iq va jarangsiz bo‘lsa, **a** va **i** kabi yorqin unli tovushlar, juda yaqin, ochiq va sayoz tovushlarda **o** yoki **u** kabi tovushlar qo‘llaniladi. Agar talabaning ovozi sezilarli kamchiliklardan xoli bo‘lsa, mashqlarni muhim vokal xususiyatlari ishlab chiqiladigan va boshqa unlilar ham ma’lum obertonlarga ega bo‘ladigan - asosiy tovush **a** ga kuylash lozimdir. **A** ga kuylashdan tovush jarangining zarur sifatlariga erishgandan keyin, **a** orqali **o**, **e** (**e**) va boshqa unli tovushlarga o‘tiladi. Bu ish faqat yakkama-yakka tartibda va o‘quvchi yoshlarnioldiga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib hal etiladi.

Ko‘pchilik pedagoglar – tovushni bosh rezonatorida sezishga yordam beradi - deb hisoblab, kuylashni og‘izni yumgan holda kuylanadigan tayyorlov mashqlari

bilan boshlaydilar. Bunda burun etlarining dirillashini sezish zarur. Og'izni yumib kuylash -lablarni bekik holatida, jag'ni birmuncha pastga tushirib amalga oshiriladi. Bunday kuylash usuli ovoz diapazonining o'rta qismida (baslar – *do-lya*, baritonlar – *do-si* oralig'ida) bajariladi. Keyin ovozni markazidan boshlanadigan bir necha pastlama mashqlarni legato va mf ga kuylash, undan keyin esa - go'yo ovozni chayqab, ikki tomonga ham davom ettiriladigan mashqlar kuylanadi.

Tonalliklar. Ko'pchilik mashqlar sodda va qulay bo'lishi uchun qo'llanmada do majorda berilgan. Vokal pedagogi har bir mashqni boshqa tonalliklarga transpozitsiya qilib, talabaning mumkin bo'lgan diapazonini bir tekis rivojlantirish uchun mashqlarni qaysi tonallikdan boshlash zarurligini o'zi tanlaydi. Kuylashni endi boshlayotgan baritonlar uchun - re major; baslar uchun - do major tonalliklari qulay hisoblanadi. Ta'limning dastlabki bosqichlarida mashqlarni odatda kvarta yoki kvinta oralig'ida transpozitsiya qilinadi.

Vokal mashqlarining templari. Ovozni yaxshi rivojlantirish uchun, uning bir tekis bo'lishi va ko'rsatilgan joylarda aniq nafas olish uchun barcha mashqlarni dastlab og'ir templarda kuylash maqsadga muvofiqdir. Talabada dastlabki muvaffaqiyatlar paydo bo'lishi bilan templarni birmuncha tezlatish va bir nafasga yanada uzunroq frazalarni kuylash mumkin bo'ladi.

Mashqlarning pastlama harakati. Pastlama harakatdagi vokal mashqlari yuqorilama mashqlarga nisbatan talabalarda odatda engil kuylanadi. Yuqorigi notani - o tovushi-ni nazarda tutib, kichik nafasda va sekin ovoz bilan boshlash lozim. Mashqning pastlama harakatida frazaning oxirigacha yuqori holat saqlab turiladi. Bu hol tovushni bosh rezonatorida cho'zib turishga, registrnlarni tekislash va silliqlashga yordam beradi. Kuylash jarayoni baqiriqqa aylanib ketmasligi uchun, tovush qanchalik baland bo'lsa, uni shunchalik ehtiyotkorlik va engillik bilan boshlash zarurligini esdan chiqarmaslik kerak. Pastlama harakatdagi mashqlarni kuylaganda, ularni xuddi yuqorilama harakatdagi mashqlardek tasavvur etish lozim.

Yuqorilama harakat. Bunday mashqlarda yuqorigi notalarni "qismasdan" balki, *p* yoki *mf* dan boshlab, engil kuylashga harakat qilish lozim, ana shunda yuqorigi nota ortiqcha zo'riqishsiz olinadi. Pastdan yuqoriga harakat qilayotib, tovushga ergashmasdan, xuddi "zinapoya bo'yicha ko'tarilayotgandek" tasavvur qilish foydalidir. Bunda tovush kuchini oshishi, nafasdan to'g'ri foydalanish hisobiga ro'y berishi lozim. Yuqorilama harakatdagi mashqlar diafragmani rivojlantirish uchun juda foydalidir, ular ko'krak rezonatori chegaralarini kengayishiga imkon beradi. Yuqorilama va pastlama harakatdagi tovushlarning ketma-ketligi, ya'ni, passajlar tempi sekin-asta tezlashtirilib kuylanganda tovushlar chaynalib ketmasligi kerak.

Pog'onama-pog'ona harakatdagi har bir mashqni to'xtovsiz ravishda, aniq kuylash, ayrim musiqiy jumlar orasida nafas olish pauzalarini bir xil tarzda tutish lozim. Bu nafasni bir maromda ishlashiga va qo'shiqchilik malakalarini o'z-o'zidan paydo bo'lishini ta'minlab boradi. Nafas og'izni ochib, burun orqali va albatta, tish jag'larini ochiq holatida olinadi. Ba'zida dastlabki mashg'ulotlar davrida chuqur nafasni sezish uchun pedagoglar talabalarga lablarni yumib,

(ammo, tishlarni ochib) xuddi “gul hidlagandek” burun orqali shovqinsiz nafas oldirishadi.

Qo‘shiq kuylashdagi og‘iz holati. Qo‘shiq kuylaganda og‘iz bilan ortiqcha harakatlar qilmaslik lozimligini doimo esda tutish juda muhimdir. Ko‘pincha talabalar frazalar tugagach, nafas olish to‘xtatilganda og‘izni yumadilar va yangi frazani boshlash uchun olinadigan nafas oldidan og‘izning vokal holatini o‘zgartirib, og‘iz bilan ortiqcha harakat qiladilar. Bu noto‘g‘ri. Avvalgi tovush tugash paytidan yangi tovush boshlanguncha xonanda go‘yo “qotib qolib” bo‘shashmasligi, lablar – yumshoq, ochilgan holatda bo‘lishi lozim. Nafas olib bo‘lgandan keyingina yangi frazani kuylash uchun og‘iz bilan harakat boshlash mumkin. Ana shunda og‘izning vokal holati o‘zgarmasdan qoladi.

Ovoz kuchi. Ovoz kuchini oshirishga shoshmang. Birinchi darslardan oq talabani to‘liq ovoz bilan kuylashga majbur qilish yaramaydi. To‘liq ovoz bu – ovoz apparatini zo‘riqtirmagan va kuchaytirmagan holda undan chiqarish mumkin bo‘lgan maksimal tovushdir. Yuqori registrda tovush kuchini saqlab turish uchun, pastki registrdagi tovushni, ayniqsa, kuyda sakrama harakatlar paydo bo‘lganda, kuchaytirmaslik zarur. Dastavval ovozning sifati, go‘zalligi, tembri va intonatsiya haqida qayg‘urish lozim. Kuylangan tovushlarning soni emas, balki ularning sifati muhimdir. Ovoz - tembri va kuchi jihatidan barcha notalarda to‘liq jaranglaydigan bo‘lishi zarur.

Ovozning eshitisli haqida. Tovushni – tomoq va burunga solib kuylamasdan aniq, sof va toza bo‘lishi lozimligini esda tuting. Bu ikkita eng xavfli kamchilik odatga aylanib qolsa, ularni tuzatish mutlaqo mumkin bo‘lmay qoladi. Ko‘krak va faltset registrlarini qo‘shilib ketishini kuzatib boring, ularning birinchisidan ikkinchisiga o‘tish sezilmagan holda bo‘lishi, ovoz esa qaltiramasligi va chayqalmasligi lozim.

Barcha mashqlarni kuylaganda tovush eshitisilishining uchta shartini: ovoz eshitisilishining yuqori holatligi, yaqinligi va chuqur nafaslilikligi saqlanishini kuzatib boring.

Har bir takrorlangan musiqiy jumalalarda musiqani yaxshi his qilish maqsadga muvofiqdir, frazani chiroyli, ta’sirli ijro qilishga intilish zarur. Har bir notani “ta’kidlash”, tovush dinamikasi va harakatini ko‘rsatish shart emas. Bunga o‘xshagan sifatlarni dastlabki mashg‘ulotlardan oq tarbiyalab borish zarur. Nafasni to‘g‘ri olishga o‘rgatish, diapazonning kengayishiga yordam qilish va tovush kuchini rivojlantirish uchun mashqlarga albatta turlicha shtrixlar, temp va dinamika ko‘rsatgich-lari va boshqa belgilar kiritilishi lozim.

Mashqlar odatda quvnoq kayfiyatda ijro qilinsa-da, ularni turlicha ta’sirli ohanglarda ijro qila bilish foydalidir: g‘amgin, quvnoq, jahl bilan, tantanavor, ehtirosli, ko‘tarinki, buyruqsimon, g‘azab bilan, keskinlik bilan, samimiy, jozibali, azob-uqubat bilan, qo‘rquv ohang ruhida va h.k.larda kuylash - musiqani so‘z yordamisiz, tembr bo‘yoqlari vositasida ifodali ijro qilishga o‘rgatadi. Mashqlarni kuylaganda uning mazmunini xuddi o‘zingiz kashf qilayotgandek, tagma’nosini nazarda tutib kuylash foydalidir.

Odatda barcha mashqlarni pedagog fortepianoda chalib turadi. Bu ishni yumshoq va sekin, xonanda ovozini bosib ketmasdan va uni qattiq ovoz bilan

kuylashga majbur qilmaslik kerak, chunki kuylayotgan odam o'zini yaxshi eshita olishi lozim.

Mashqlarni birinchi oktavada ijro qilinsa, birmuncha yuqori va aniq yo'nalish berishi mumkin. Ammo, erkak ovozlar registrini hisobga olib, mashqni kichik oktavada ham ijro qilish mumkin.

Kuylashni boshlash va kuylash tartibi. Mashqlarni kuylash uchun ham, musiqa asarlarini kuylash uchun ham bu tartib bir xildadir: nafas olish – nafasni tutish – kuylash; nafas olish – nafasni tutish – kuylash va h. k. Nafasni tutish payti yoki lahzalik pauza (nafasni to'xtatish) nafas olish va chiqarish holatini jalb qilish uchun zarurdir. Kiev konservatoriyasining professori M. Egor'icheva oldin i deyish, keyin nafas olish, bir lahzaga nafasni tutish va shundan keyingina kuylab boshlashni tavsiya qiladi.

Mashqlar

Barcha mashqlar sekventsion tartibda - yarim tonlar bo'yicha yuqorilama (agar strelka yuqoriga qo'yilgan bo'lsa) va pastlama (agar strelka pastga tomon yo'naltirilgan bo'lsa) yoxud faqat bir marta (agar strelka qo'yilmagan bo'lsa) kuylanadi.

1-mashq. To'g'ri ashulachilik ovozini shakllantirish va bir tovushdan ikkinchisiga tekis o'tishni ta'minlash uchun qo'llaniladi. Mashqni diapazonning o'rtasida, eng to'g'ri jaranglaydigan unli tovushda kuylash lozim.

a) **Bir tekis** N. Baxutashvili.

A, a, a, a, a

b) **Og'ir**

Mi, fa, sol, fa, mi

2-mashq. Unli tovushlarni tekislash uchun qo'llaniladi. Kvarta intervali doirasida, diapazonning o'rtasida kuylanadi. Unlilarni almashlab turish ularni tekislashga yordam beradi. Bitta notada kuylanadigan mashqlar - bir tekis, tejamli nafas chiqarish, tovush tayanchini rivojlantiradi, tovush filirovkasi (tovushni uzoq vaqt davomida bir xil kuch bilan cho'zib turish, bitta tovushni o'zida *cresc.* va *dim.* qilish)ga yordam beradi.

Unli tovushlar almashlab kuylanganda quyidagi vazifalar bajariladi:

m-e, a-o-u tovushlarida unli tovushlar tekislanadi;

i-e-a-o-u tovushlarida asta-sekin og'iz bo'shligi ortib boradi;

u-i-o-e-a tovushlarida ovoz boylamlari muskullarining zo'riqishi kamayadi;

a-o-e-u-i ovoz boylamlari ostidagi bosim ko'tariladi.

a) **Bir tekis** G. Tits.

Mi, me, ma, mo, mu
Re, re, re, re, re

b)

Mi, me, ma, mo, mu
Ma, me, mi, mo, mu

d)

A, e, i
Du, do, da

e)

U, o, a, e, i
I, e(ye), a(ya), o, u
A, e, i, o, u

3-mashq. Yuqori holatni va nafasni tejab sarflashni saqlagan holda talabada frazani his qilish va tovushlar tekisligini shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Bu mashqda soddalashtirilgan fortepiano jo'rligi ko'rsatilgan, undan boshqa mashqlarni kuylaganda ham foydalanish mumkin.

Og'ir

Mm...
Lya, a, a
Za, a, a
Ba, be, bi

4-mashq. Bu mashqdan ko'zda tutilgan vazifalar xuddi 3-mashqdagidek, ammo, birmuncha kengroq intervallarda (pastlama uchtovushlik tovushlarida) bajariladi.

a)


Mm..(lya,za)
Re(na),e(ne),lya(na)
Gri(ga),gro(go)gri(ga)
A - ra - va
Ba - be - bi




Oldiniga *p* va *mf* orasidagi tovush kuchining farqi uncha katta bo‘lmasligi lozim. Keyin bu farq *mf* yoki *f* ning orttirilishi hisobiga emas, balki, *p* ning asta-sekin kamaytirilishi hisobiga ortadi.

5-mashq. Ovozni tekislash, registrnlarni silliqlash, kantilena, nafasni rivojlantirish, gammalar kuylashga tayyorlanish va yuqori notalarni yopish uchun qo‘llaniladi. Ko‘krak tovushlarini yumshoq, yumaloqligiga, nafasning ravonligi va yuqori tovush holatiga e’tibor bering.


Yuqori notalarda tovushni yopish ya’ni, dumaloqlash ko‘pincha qiyinchiliklar keltirib chiqarishi sababli, bunga dastlabki mashg‘ulotlardan boshlab tayyorgarlik ko‘rilishi lozim. Bu vazifa kuyning yuqorilama harakatidagi va unli tovushlar almashlab aytiladigan mashqlarda engil bajariladi. Buni uchun pastki notalarni faol, ammo, sekin tovush bilan **a (ma, lya, na)**ga, keyin tovush kuchini oshirib (kuchaytirmasdan), yuqori notada **o (lyo), u (lyu)** ga o‘tiladi, chunki yumaloq **o** unlisi darrov tovushni yopadi. Pastki notalarda yana **a** ga qaytiladi. Yumaloqlangan unlidagi tovush eshitilishi ovozni tekislashga yordam beradi.




h) 

i) 


j) 


k) 

l) 

m) 

n) 

o) 

p) 

6-mashq. Turlicha cho‘zimdagi tovushlarda sekunda intervalini aniq kuylashni shakllantirish uchun qo‘llaniladi. Bu mashq pastki va o‘rta registrnlarni bir-biriga bog‘lash uchun juda foydalidir. O‘n oltitalik notali taktni tushirib qoldirish mumkin.

N. Porpora

7-mashq. Nafas asosida legatoni o‘zlashtirish, tovushni yopish uchun qo‘llaniladi (kvinta intervali doirasidagi turlicha ritmik ko‘rinishlarda).

a) **Bir tekis**

Lya - mi - sol - mi - do

b) N. Verbova

Do, mi, mi, sol, sol, mi, mi, do

d) N. Verbova

Do, mi, sol, fa, mi, re, do

e)

A(lya) - o - a

f) N. Verbova

I - a - i - a - i - a - i - a

g) h)

Ri - ra - ra - ri

i) **f** **p**

A - a

j) A. Vlasov

A - a

k) V. Goryachkin


A - o, a - o, a - o, a - o, a

l) 
A, o - a, o - a, o - a, a -

m) 
A(lya)

n) 
Lya N. Kolpakova

o) 
Lya - a - - lya - a - a


p) 
A -

q) 
Mi - i, ya - a, mi - i, ya - a, a T. Tits

r) 
A - - - - - a Ye. Shumilova

8-mashq. Diafragmaning faolligi va harakatchanligini rivojlan-tirish uchun qo'llaniladi. Qo'lingizni orqangizga qo'yib, o'zingizni yon tomonlardan o'rab oling. Tovushlarni aytayotganda qo'llarni tanadan sakrab, ajralayotganini his qilish lozim. **D** va **n** undoshlarni qattiq aytish zarur, buni uchun til tanglayga yopishtiriladi, oldingi yuqori tish qatorlariga tiraladi va **d (n)** undoshlari juftlab, kuylanadi.

a) **Bir tekis** 
Dday, Nney, dday, nney, dday, nney N. Sinitsina.

b) 
Dday, dday, dday, dday, dday

9-mashq. Artikulyatsion apparatining faolligini rivojlantirish, diafragma va tana lanjligini engish uchun foydalaniladi. Mashqni nota nomlari bilan kuylash foydalidir.

a) **Bir tekis**

Do, do-re, re-mi, mi-fa, fa-sol, sol-fa, fa-mi, mi-re, re-do

b)

Do, do-re, re-mi, mi-fa, fa-sol, sol, sol-fa, fa-mi, mi-re, re-do

d)

Do, do-re, re-mi, mi-fa, fa-sol, sol-lya, lya-si, si-do, do,
do-si, si-lya, lya-sol, sol-fa, fa-mi, mi-re, re-do

10-mashq. Ovozni tekislash uchun (registrnlarni silliqdash), legato, nafas, artikulatsiya, nafas oldi tovush hujumi va diapazonni kengaytirish uchun qo'llaniladi.

a) **Bir tekis**

Re - - ya - - mi

b)

Xa, xa, xa, xa, xa
Lyo - o - o - o - o

d)

Si - lya, lya - sol, sol - fa, fa - mi, mi

e)

Lya -

N. Kolpakova

N. Maslennikova

Keyingi mashq tez esda qoladi va to'liq diapazonga mo'ljallangan. Uni o'quvchi yoshlarni uchun qulay bo'lgan istalgan bir tovushdan boshlash mumkin, ammo, bu tovushdan keyingi ko'rsatilgan yuqorilama va pastlama ketma-ketliklarga albatta, rioya qilish zarur. Akkordlar xonandani har bir kuy jumlasiga tayyorlaydi. Har bir jumla oldidan nota nomlarini do major gammasi bo'yicha yuqorilama tartibda (hatto pastlama tartibda ham) aytiladi.


Bir tekis

Do re


A. Vlasov



11-mashq. Lablarni harakatchanligini rivojlantirish uchun (ayniqsa, yuqorigi, “o‘lik” labni) va lunjlarning kvadrat muskullarini lanj-ligini engish uchun qo‘llaniladi. **Fa, za, ze va re** - ga kuylanganda lablar tezda yoyiladi (xuddi keng kulishdagi kabi); **fu, zu, u, ro** – ga kuylanganda esa – lablar tezda oldinga cho‘chchaytiriladi. *Idu, pishu, knigu* va boshqa so‘zlarni talaffuz qilish foydalidir; bu mashqni bir qismini (odatda yuqori registrda) tovushsiz, faqat lablar bilan so‘zlang. Lablar bo‘shashgan bo‘lsa **b, p, v, f, m** kabi undosh tovushlardan foydalanish tavsiya etiladi.



12-mashq. Tovushni bosh rezonatorida his qilish uchun foydalaniladi. Kuylashda **b, d** undoshlarini yanada jarangdor talaffuz qilish va oxirgi **m, n** tovushlari eshitilishini bir oz cho‘zish lozim.



13-mashq. Til uchi faolligini yanada oshirish, yuqori tovush holati va tovush yaqinlashtirilishini his qilish uchun foydalaniladi. **Lya** bo‘g‘ini tovushni yaqinlashtiradi, **do** bo‘g‘ini tovushni yumaloqlaydi. Yuqorigi kurak tishining

ildizidan til uchining pastga tomon kuchli harakati **lya** ga kuylaganda talaffuzni urg'ulashtiradi. Takroriy tovushlarni kuylaganda yagona kuylash holatini saqlang.

Agar til bo'shashgan, lanj bo'lsa **d, t, ts, s, j, ch, l, sh, r** kabi undosh tovushlardan foydalaning. Til uchini **l** undoshi yaxshi faollashtiradi. Mashqdagi bo'g'in nomlarini barcha tonalliklarda ham o'zgartirmang.

a) **Bir tekis** T. Mixaylova

Fa, lya, lya, lya, fa

b)

Fa, lya, lya, lya, do, do, lya, lya, fa

14-mashq. Kantilenani rivojlantirish, registrnlarni silliqdash va tekislash, triollar va xromatizmlarni kuylash, diapazonni kengaytirish va talaffuzni yanada aniqlashtirish, gammalar kuylashga tayyorgarlik ko'rish maqsadlarida foydalaniladi.

a) **Bir tekis**

Lya - - - e - lya
Mi - - -
Re - - - lya - -

b)

A - o - a - o - a

d) **Bog'lab** N. Verbova

I, a, i, a, i, a, i, a,

O'rta va pastki registrnlarni bir-biriga qo'shish, pastki notalarda tembrni boyitish uchun quyidagi mashq qo'llaniladi.

e) **Og'ir** V. Lukanin

Re(lya) - a Re(lya) a
Re, re,

Yopiq va ochiq tovush eshitilishida dinamika almashgan kombinatsiya. Dastlab p va mf yoki f oralaridagi farq kichik bo'lishini talab qilish lozim (4-mashqdagi kabi), keyinchalik bu farqni sekin-asta f kuchaytirmasdan, p ni kamaytirish hisobiga orttiring.

Bir tekis

f) *p* yopiq ochiq *mf* yopiq ochiq G. Tits

Mm... ma a mm... - ma - a
 Mi - da - a mi - da - a
 I - ya - a i - ya - a

g) A. Baturin

Ma(na) - ma(na) ma(na) - ma(na)
 dumcha

A tovushi aniq, yorqin, yaqin ammo, yumaloqlangan va qanchalik past bo'lsa, shuncha yorqinroq bo'lishi lozim.

h) **Bir tekis**

A -

i)

A - - a - - a

j) Ye. Chavdar

A - - a - - a - - a

k)

A -

l)

A - -

m)

A - -

n) V. Lukanin

Re(lya)

o)

p)

q)

mi, ya(a) - mi, ya(a), a

r)

mi, ya(a), mi, ya(a), a

s)

A 3 - 3

Registrlarni tekislash uchun quyidagi mashq qo'llaniladi. Xromatik frazalarni to'g'ri kuylash uchun, fortepiano yordamida va sekin tempda mashq qiling.

t) **Bir tekis** V. Lukanin

A (lya, re) -

u) M. Markezi

A -

v)

Mm...
Mi

x) **Tez**

A -

y) **Bir tekis** F. Abt

A -

15-mashq. To'g'ri tovush holatini his qilish uchun qo'llaniladi.

Bir tekis Ye. Chavdar

16-mashq. Qisqa notalarga unilarni qo'yish, aniq, qattiq tovush hujumini va stakkato hamda undan legatoga aniq ko'chish malakalarini shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Kiev konservatoriyasining professori M. Donets-Tesseyr stakkato usulini - ovoz boylamlarining bekilishi va ochilishi, tomoq harakati bilan bajarish zarur deb hisoblagan. Stakkato hosil bo'lishiga diafragma, ko'krak, qorin va jag'larlarning silkinishlari qo'shib ketmasligini kuzatish lozim. Nafasni ravon tarzda berish va faqat, tomoq havo oqimini ovoz boylamlarining engil bekilishlari bilan to'xtatishi zarur. Tovushni ovoz boylamlarining chetlari bilan sal-pal itarish kerak bo'lgan paytlarda Tesseyr: "Tovushni nafas uchi bilan olgin!", - degan.

Stakkatoning xususiyatlaridan biri shuki, uni yumshoq tanglayni ko'tarib, gumbaz bilan hosil qilish mumkin emas, bunda tovushlar og'ir, yumaloq bo'lib eshitiladi. Stakkatoda tovushlarini yassi, tishlarga yaqin, engil va iloji boricha, qisqa kuylash zarur.

Stakkato usulida ovoz boylamlarining bo'shashgan vaqtida, bo'g'iklikda kuylash foydalidir.

Biz stakkatoni g'ozlarning g'oq-g'oqlashini eslab va xuddi g'ozlarday g'oq-g'oqlab kuylashni maslahat beramiz.

a) **Bir tekis** V. Lukanin

b)

d)

e)

f) N. Verbova

17-mashq. Ovozning aniqligi, harakatchanligi va egiluvchanligini rivojlantirish, yagona xarakterdagi tovushni shakllantirish va registrnlarni silliqlash, tovushni sun'iy kuchaytirishlardan saqlanish uchun qo'llaniladi.

Mashqlarni oldin albatta, og'irroq templarda ijro qilib bo'lgachgina - tez, harakatchan, to'liq ovoz bilan, ammo, qichqiriqsiz kuylash lozim.

a) A. Vlasov
 Lya - - -
 Mi, ye, ye, ya
 Re, lya, re, lya

b) I. Iosifov
 miya, miya, miya, ma, miya, miya, miya, ma
 Nai(nao) na, nai(nao), na

d) A - -

e) A(ye,i) -

f)

g)

h) O. Blagovidova
 Mi - a, mi - a

i)

j)

k)

l)

m) N. Baxutashvili
 A(i), - ye, i(a), o, u
 U, o, a, ye, i

n) **bog'lab**

Ya, a, a, a

o)

Ya(yo,yu), ya, ya, ya, ya, ya, ya, ya

Takroriy notalarni sezilarli qilib kuylash uchun, ularni birmuncha nafas oldi tovush hujumi bilan kuylash zarur, bu usul notada h harfi bilan belgilangan, ammo gammalarni kuylaganda bu usul yaramaydi.

p) M. Markezi

A - a, xa - a, xa - a, xa - a,.....

Triollar registrlarni tekislash uchun xizmat qiladi, to'g'ri intonatsiyani shakllantirishga yordam beradi va tovush harakatchanligini oshiradi.

Triollardagi notekis ijrodan qochish uchun - ikkinchi nota urg'u bilan ijro qilinadi (odatda beixtiyor birinchi notani ta'kidlashadi).

q) **f** **3** **3** **3** **3** **p** **3** **3** **3** **3** F. Abt

Lya(mi), ya, mi, ya, mi, ya, mi, ya, mi

r) **Tez** **3** **3** **3** **3** **3** R. Korozko

Lya -

s) N. Baxutashvili

Lya -

f **rit.** **p** **3** **3** **3** **3** **3** **3** **3**

18-mashq. Tovushni ravonligi va tekislanishi, yuqori tovush holatini saqlash, registrnlarni silliqlash, artikulatsiya, kantilenani rivojlantirish, diapazonni kengaytirish, nafasni mustahkamlash, tovushning sun'iy kuchayishini yo'qotish, to'g'ri intonatsiya malakalarini shakllantirish bilan birga gammalar ustida ishlash uchun qo'llaniladi.

Gammalar ovozning nuqsonli tovushlarini eshitishga yordam beradi, zo'riqish imkoniyatlariga (nafasni zo'riqtirishga) yo'l bermaydi va tomoqqa solib kuylash kabi kamchiliklarni yo'qotadi. Gammalarni pastlama harakat bilan kuylash foydalidir. Bunda har bir tovushni aniqlik bilan toza va sof kuylanishiga e'tibor berish lozim. Gammaning yuqoridan pastga tomon harakatida esnash holatini va hiqildoqning erkinligini his qilish zarur. Talabalarga tovushlar ketma-ketligini bir-biriga bog'lab kuylashni anglatish uchun, oldin gammalarni og'ir tempda kuylatish foydalidir. Gammalarni bitta unli tovush bilan kuylash nafas tayanchini rivojlantirish va yuqori tovush holatini saqlash uchun zarurdir; nota nomlari bilan kuylanganda unli tovushlar tekislanadi; tez tempda bitta unliga kuylash – tovush harakatchanligini va engilligini oshirish hamda tovushni yaqinlashtirishga imkon beradi; **a - o** unlilarini almashlab kuylash esa yuqori notalarni yopishda engillik tug'diradi. Gamma kuylaganda yuqoriga harakat qilayotib, og'izni kengroq ochish lozim bo'ladi. Yuqori notani boshqa notalarga qaraganda ajratib kuylamaslik juda muhimdir; barcha tovushlar ovozning bir xil kuchi bilan kuylanishiga harakat qilish zarur. Gammalar kuylaganda nafas etishmasa, ijro tempini bir oz tezlatgan ma'qul.

a) **Juda og'ir**

Do, si, lya, sol, fa, mi, re, do

b) **Bir tekis**

Do, si, lya, sol, fa, mi, re, do
Ma, o, a, o, a, o, a, o

d)

Mi - ya, mi - ya, mi - ya, mi - ya,
Tra - lya, tra - lya, tra - lya, tra - lya

e) **N. Baxutashvili**


Mi, mi, mi, mi, (do,zo)....
Xa - o, xa - o,

f) **A. Vlasov**

Lya (lyo, mo) lya, lya, lya
Mi(re), ye(lya), mi(re), a(lya)


g) 
Lya, Mi(ri) lya(re), o(ra), lya a(ri)

h) 
Do, re, mi, fa, sol, lya, si, do

i) 
Ma, o, a, o, a, o, a, o, ma, o, a, o, a, o, a

j) 
A, o - a, o - a, o - a, a -

k) 
I, a - i, a -

l) 
A - o, a - o, a - o, a - o, - -

Ye. Obratsova

G. Tits

A - o, a

19-mashq. Diapazonni kengaytirish, nafas va kantilenani rivojlantirish, tovush eshitilishini tekislash va yumaloqlash, ovozning harakatchanligi va egiluvchanligini shakllantirish, xonanda organizmini faollashtirish, registrnlarni silliqdash, yuqori notalarni egallash, tovushni bosh rezonatorida, yuqori holatni his qilish va bu holatni diapazonning o'rta qismiga olib o'tish maqsadlarida qo'llaniladi.

Arpedjiolarni bir tekis, ravon, tovushlarni bir-biriga bog'lab, yuqori notalarni sun'iy kuchayishiga yo'l qo'ymasdan kuylash zarur, ularni "bo'rttirish" yaramaydi.

Pastki tovushlarni erkin, yumshoq, erkin nafas bilan kuylang, ularning uzviyligiga e'tibor bering.

Yuqori notalarni shakllantirish uchun gammani yuqoridan pastga tomon, talabaniy eng chekka yuqori notalaridan boshlab kuylash foydali-dir. Bunda yuqori notani kichik nafas va sekin ovoz bilan kuylash juda muhimdir.

a) **Bir tekis**
 Ma - a - a - ma
 Da - a - a - da

b) **Og'ir** R. Korozko

d) **Bir tekis**
 A - a - o - u - o - a - a
 Re(lya) - lya(re) - re(lya)

e) **Lya**

f) **Lya, - re, lya - -**

g) **Og'ir** V. Lukanin
 A - o - u - o - a

h)

i) **Mi, si, sol, mi**
Re, lya, fa, re
Lyub - lyu te - bya

j) **N. Dorliak**

20-mashq. Ovozda sakrashlarsiz “qisq” kuylashni his qilish, diapazonni kengaytirish uchun intervallar kuylash foydalidir. Intervallar sof kvintagacha og'ir, keyin esa – osoyishta tempda kuylanadi.

Katta sekunda

a) **Og'ir** J. Dyupre F. Abt M. Markezi

b) Katta tertsiya

d) Sof kvarta

e) Sof kvinta

f) Katta seksta

g) Katta septima

h) Oktava

Oktava sakrashlarini shakllantirish va gammalar kuylash uchun:

j)

Do, do o - o - o


Intervallar kuylash bo'yicha mashqlarni:

- barcha intervallarni ketma-ketligi bo'yicha (katta, kichik, sof, orttirilgan va kamaytirilgan);
- interval tovushlarini cho'zib turib;
- tovushni sekin-asta pasaytirib va kuchaytirib;
- uchtovushlik va uning aylanmalari tovushlari bo'ylab;
- dominantseptakkord va uning aylanmalari tovushlari bo'ylab kuylash mumkin.

21-mashq. Artikulatsiyani rivojlantirish va ovoz harakatchanligini oshirish uchun qo'llaniladi. Artikulatsiya apparatining muskullari ovoz muskullarini

sezilarli darajada faollashtiradi, bu esa tabiiy ovozning namoyon bo'lishiga va uning rivojlanishiga olib keladi.

Bir tekis

a) 


Tez

b) 

Tez

d) 

Tez

e) 

A. Vlasov

22-mashq. Registrlarni tekislash, to'g'ri intonatsiyani mustahkamlash va tovush harakatchanligini oshirish uchun foydalaniladi. Oldin og'ir tempda kuylang.

a) 

M. Markezi

b) 

M. Markezi

23-mashq. Diafragmani harakatchanligini rivojlantirish va “nafasni tashlab yuborish” usulini egallash maqsadida qo'llaniladi.

“Nafasni tashlab yuborish” – beixtiyor nafas chiqarish demakdir. Buni qanday tushunmoq kerak? Nisbiy cho'zimli **do** tovushidan juda qisqa **re** ga o'tilganda - oxirgi **re** tovushining eshtilishi go'yo tayanchdan tushirib yuboriladi, beixtiyor nafas chiqarish ro'y beradi (“nafasni tashlab yuborish”), buni natijasida tezda yangi nafas olinadi va havo tezda “so'rilib” unga navbatdagi fraza **re - mi** va h. k. lar kuylanadi. “Tashlab yuborish”dagi tez va chaqqon nafas olish tufayli diafragmaning faol ishtiroki qaror topadi.



Qisqa musiqiy frazalar

Mashqlarda o'zbek va boshqa xalq qo'shiqlaridan, o'zbek, rus va chet el kompozitorlarining vokal asarlaridan olingan qisqa musiqiy frazalardan keng foydalanish zarur.

Qisqa frazalar vokal-texnik vazifalarni musiqiy-ijrochilik vazifalari bilan birlashtiradi. Qisqa frazalar ko'pincha o'rganilayotgan asarning kuylash jihatdan murakkab bo'lgan qismlaridan iborat bo'lishi mumkin. Bunda oldin past tessiturada zarur tovush eshutilishiga erishib, talabani sekin-asta asarning tonalligiga olib kelinadi.

Ovozni mashq qildirish uchun kichik musiqa asarlarini diapazonning o'rtasida to'la kuylash usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda talabani o'zi mashqlar uchun so'z tanlashi ham mumkin.


1. Frazani his qilish va yuqori tovush holatini saqlash uchun:



2. Unli tovushlarni tekislash ishlari uchun:



3. Nafasni rivojlantirish va tovushni bitta nuqtaga to'plash, tovushning bir xil eshutilishiga erishish uchun qo'llaniladi (bitta notada kuylash foydali):



d)

Sul ma re Luc - ci - ca L'ast - ro d'er - gen to

4. Yarim tonlarni “siqiq” kuylashni his qilish malakasini rivojlantirish, kantilena unsurlarini o‘zlashtirish uchun. Yarim tonlarni tovushni yig‘ib kuylang.

*A - mo - re, a - mo - re, a -
De - vie - ni, de - vie - ni, de -*

mo - re, a - mo - re, vie - ni, de - vie - ni

5. Turlicha intervallarni “siqiq” kuylash uchun:

Не спеша В. Соловьев-Седой. "Подмосковные вечера"

Не слыш - ны все - ду да - же шо - ро - хи.

Сдержанно Г. Свиридов. "Роняет лес багряный свой убор".

Ро - ня - ет лес ба - гря - ный свой у - бор.

6. Lab va til uchini rivojlantirish uchun. Pastki jag‘ deyarli harakatsiz turadi. Rechitativlarni kuylashga o‘rgatadi.

Дж. Россини. "Севильский цирюльник".

Всум - ра - ке то - нет спя - щий квар - тал, и ни - ко -

го нет ктоб по - ме - шал.

7. Talaffuzni rivojlantirish uchun. Barcha jarangli undoshlarni juda aniq talaffuz qiling:

Н. Урбан

По - езд е - дет скре - же - ша, же - че, ша - ша.

8. Aniq talaffuz va kantilenani rivojlantirish uchun:

Оғир

Доб(яс) - - рый(ный) день
Я(ға) - - ша(ла) - син(ба)

Овоз диапазонининг юқори қисмида "резвый конь", "майский день", "арава" ва "жон-жон-жон" каби сўзларни ишлатинг.

А. Власов

При вет те - бе

Оғир В. Курочкин

Ран - ня - я вес - на
Та - - ет снег впо - лях

9. Kantilena va nafas asoslarini shakllantirish uchun:

Умеренно с движением Л. Делиб. Стансы
Нилоканти из оперы
"Лакме"

Втво - их гла - зах дай ви - деть мне -
(о - чях)

10. Kantilena va musiqiy-ifodali kuylash malakalarini shakllan-tirish uchun:

a) **Умеренно**

Не - бо по - сла - ло ан - ге - ла мне, ста - ри - ку, на ра - дость.

b) **Бир текис** Хамза. "Хой ишчилар"

Хой, иш - чи - лар

d) С. Бобоев "Қалб"

ён - ма - ган ю - рак - ни ни - ма ки - лай мен.

e) **Умеренно** Г. Мушель. "Как хочешь это назови"

Уж, вид - но, чем лю - бовь силь - не - е, тем за не - е страш
не - е нам.

IL FAMOSO FOGLIO DI PORPORA


N. Porporaning (1686-1768) mashhur varag`i

Bu varaq bo'yicha mashhur xonanda Franchesko Kaffarelli besh yildan ortiq N. Porporada ta'lim olgan.

Nikola **PORPORA** (1686-1768) – italiya kompozitori, kapelmeyster, vokal pedagogi.

1724 yilgacha Neapol shahrida (“Sant-Onofrio a Kapuana” konservatoriyasida vokaldan dars bergan, shogirdlari orasida Kaffarelli, Farinellilar bor), keyin – Venetsiyada, Venada (Y. Gaydn undan darslar olgan), Londonda teatrni boshqargan, Drezden shahrida saroy kapelmeysteri bo'lgan. 1760 yildan Neapoldagi kafedral soborning kapelmeysteri va “Sant-Onofrio a Kapuana” konservatoriyasining direktori bo'lib ishlagan.

Ijodiy ishlari orasida “Vasiliy – Sharq hukmdori” (1713, Neapol), “Temurlang” (1730, Turin), “Kamilla saltanati” (1740, Neapol) va boshqa operalari, kantatalar, oratoriyalar, diniy asarlar; kamer simfoniyasi; skripka uchun sonatalar, klavir uchun pesalar yozgan.



5-машк
2, 3 ёки 4 марта такрорланг

6-машк

7-машк
такрорланг

8-машк

9 - машк

10 - машк

11-машк

12 - машк

13-машк

14-машк

15-машк

Detailed description of the musical score: The score consists of 15 exercises, each labeled 'машк' (exercise). Exercises 5 through 10 are single-line exercises in C major, 4/4 time. Exercise 5 is a single note with a finger number 5. Exercise 6 is a single note with a finger number 6. Exercise 7 is a single note with a finger number 7 and a repeat marking. Exercise 8 is a single note with a finger number 5. Exercise 9 is a single note with a finger number 6. Exercise 10 is a single note with a finger number 8. Exercises 11 through 15 are multi-line exercises. Exercise 11 is a single-line exercise with a repeat marking. Exercise 12 is a single-line exercise with a repeat marking. Exercise 13 is a single-line exercise with a repeat marking. Exercise 14 is a single-line exercise with a repeat marking. Exercise 15 is a single-line exercise with a repeat marking. Exercises 11-15 include various rhythmic patterns, triplets, and repeat markings.

MUNDARIJA

Muharrirdan.....	3
Vokal mashqlarini qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar.....	4
Mashqlar.....	8
Qisqa musiqiy frazalar.....	27
N.Porporaning mashhur varag‘i.....	31
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	33

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. И. П. Брызгалов., Школа пения для баритона и баса. Изд., литературы и искусства имени Гафура Гуляма. Т - 1987
2. Музыкальный энциклопедический словарь., М – 1990
3. Н. Порпора., Вокализы
4. Русча-ўзбекча луғат., Т - 1983

